



EL-YURTGA XIZMAT HAMISHA E‘ZOZLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni poytaxtimizdagi Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.



Marosimda Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi va hukumat vakillari, ziyolilar, shahar jamoatchiligi jam bo‘ldi.

Bu el-yurtga xizmat unutilmasligi, hamisha e‘zozlanishidan dalolat. Shavkat Mirziyoyevning e‘tibori bilan Birinchi Prezidentimizning xotirasi abadiylashtirildi,

u kishi tavallud topgan 30-yanvar har yili nishonlanadigan bo‘ldi. Toshkentda ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Samarqandga tashriflar chog‘ida Islom



Karimov maqbarasini ziyorat qilish euzu an‘anaga aylandi.

Bu keyingi avlodlar uchun ham ibrat va namunadir. Marosimda ana shunday ehtirom

va birdamlik namoyon bo‘ldi. Qur‘on oyatlari o‘qilib, duo qilindi. Birinchi Prezidentimizning xalq manfaati yo‘lida qilgan ishlari, fazilatlariga yodga olindi.

Shunday tadbirlar Samarqand va Qarshi shaharlarida ham o‘tkazildi.

O‘ZA

ENERGETIKA SOHASIDAGI LOYIHALARNI KENGAYTIRISH YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Lukoil” kompaniyasi asoschisi Vagit Alekperovni qabul qildi.

Uchrashuvda Rossiyaning yetakchi neft-gaz kompaniyasining O‘zbekiston energetika sohasidagi loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi. Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli uglevodorod konlarini o‘zlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va neft mahsulotlarini chakana sotish tizimini rivojlantirish shular jumlasidan.

Kompaniyaning mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish rejalarini yuzasidan fikr almashildi. Mutaxassislarini tayyorlash va ishga joylashtirish, ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

Bunyodkorlik

“YANGI O‘ZBEKISTON” MASSIVLARI

HUDUDLAR OBOD QILINADI, SAVDO VA XIZMATLAR ORTADI

2



OMILKORLIK BILAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAYDONLARI VA TOMORQADAN MO‘L HOSIL OLISHGA ERISHILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomorqada va ijaraga berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Omilkorlik va tarkibiy o‘zgarishlar tufayli qishloq xo‘jaligi maydonlaridan mo‘l hosil olinmoqda. Shu bilan birga, boshqa yerlarni ham “iqtisodiy aktiv”ga aylantirish, odamlarni ishli qilib, daromadini oshirish choralarini ko‘rilyapti.

Masalan, 5 milliondan ziyod xonadonda 508 ming gektar tomorqa, avval tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklarida 17 ming gektar va so‘nggi yillarda aholiga tarqatilgan 260 ming gektar yer bor. Bu oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda eng katta xazina.

O‘tgan 7 yilda tomorqa egalari va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun jami 2,3 trillion so‘m imtiyozli kredit va 265 milliard so‘mlik subsidiya berilgan. Odamlarning ko‘nikmasidan kelib chiqib, 5 ming 145 ta mahalla meva-sabzavot yetishtirish, ko‘katchilik, limonchilik kabi yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilgan.

Eng asosiy, odamlar yerga ishlov berishni, zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llashni yaxshi o‘rgandi. Ilgari tomorqada gektardan o‘rtacha 18 tonna mahsulot olingan bo‘lsa, hozirda bu 2 karra oshib, 38 tonnaga yetdi.

Mahallalarda qo‘shimcha 470 ming tonna meva-sabzavotni saqlash, saralash va qayta ishlash quvvatlari yaratildi. Bu borada yaxshi tajriba yaratgan tuman va mahallalar juda ko‘p. Asaka, Jondor, Shahrisabz, Uychi, Qiziltepa, Yangiyo‘l, Toyloq, Angor, Quva, Oltiariq kabi o‘nlab tumanlarda odamlar tomorqadan 2-3 marta hosil olib, bir sotixdan o‘rtacha 15-20 million so‘m daromad topyapti.

Bunday ishlarni boshqa joylarda ham rivojlantirish uchun aholi, qayta ishlovchilar va eksportchilarning takliflari o‘rganildi.

Masalan, samarqandlik bog‘bonlar uzum ko‘chatini shpalerga o‘tkazish uchun subsidiya berishni so‘ragan. Bunday usulda hosil 2 karra oshadi. Bu qo‘llab-quvvatlanib, har bir shpaler uchun 15 ming so‘mgacha subsidiya ajratiladigan bo‘ldi. Shuningdek, mayizni osma usulda quritish uskunalari uchun oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida imtiyozli kredit berilishi aytiladi.

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Tasmay mahallasida 875 ta xonadon tomorqasida sitrus meva ko‘chati va limon

yetishtirib, har biri yiliga 200 million so‘mgacha daromad olyapti. Sariosiyo va Oltinsoydagi mingdan ziyod xonadonlar ham “handak” va “termos” usulida limon yetishtirish tashabbusini bildirgan.

Yangiyo‘llik dehqonlar ham o‘zimizning ko‘kat urug‘lari yo‘qolib ketgani, sifatli nav yetishmasligini aytdi. Bular bo‘yicha vaziyatni o‘nglash, aholi tashabbuslarini amalga oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli va eksportbop ekinlar ekish, ularning hisobini yuritish va moliyalashtirish bo‘yicha yangi tashabbuslarni ma‘lum qildi.

Dehqon xo‘jaliklari va tomorqani rivojlantirish bo‘yicha alohida kengash tuziladi. U aholini o‘qitishdan tortib, urug‘, ko‘chat yetkazish, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksportga chiqarish zanjirini yaratish bilan tizimli shug‘ullanadi.

Mazkur kengash boshqaradigan “Uzagrostar” xolding kompaniyasi tashkil etiladi. Ushbu xolding tarkibida meva-sabzavotchilik yo‘nalishlariga ixtisoslashgan 15 ta kompaniya ochiladi. Ushbu kompaniyalar meva-sabzavot yetishtirish bo‘yicha o‘z brendini yaratgan 15 ta drayver tumanini yangi bosqichga olib chiqib, ularning tajribasini yana 72 ta tumanida ommalashtiradi.

Har bir kompaniyaga byudjetdan 20 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi. Tomorqa kengashida alohida jamg‘arma tashkil qilinib, dastlabki bosqichda 260 milliard so‘m va 1,2 trillion so‘mlik kredit portfeli beriladi.

Buning hisobiga 15 ta kompaniya birlashtirilgan tumanlardagi ixtisoslashgan mahallalar aholisini o‘ziga mijoz qilib, mablag‘ bilan ta‘minlaydi. Tomorqada hosilni ko‘paytirish uchun chetdan yangi texnologiya va ekspertlar olib keladi. Xonadonlarga hosildor urug‘ va ko‘chat, sifatli o‘g‘it yetkazish, agrotexnik xizmatlar ko‘rsatish, mahsulotini qayta ishlash, saqlash va eksport qilishda ko‘maklashadigan tizim tashkil etiladi.

Umuman, aholi tomorqasida oziq-ovqat yetishtirishni moliyalashtirish uchun qariyb 5 trillion so‘m yo‘natilishi belgilandi.

Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa egalari qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Jumladan, mahalla va xonadonlarda muzlatkich, qadoqlash, quritish, qayta ishlash omborlari va issiqxonalar qurilib, aholiga 5 yilda bo‘lib to‘lash sharti bilan tayyor holda beriladi. Tomorqa xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlarga 7-yil muddatga 17,5 foizli imtiyozli kredit ajratiladi. Aholi va dehqonlarning eng namunali loyihalari uchun har yili 20 milliard so‘mlik grantlar e‘lon qilinadi. Bunda 500 ta mahalladagi eng zo‘r loyihaga 40 million so‘mdan grant beriladi.

Shu bilan birga, mahallada eksportbop mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘yib bergan usta-dehqonlarga 100 million so‘mgacha, qisqa muddatli o‘quv kursini tashkil qilganlarga 5,5 million so‘m subsidiya ajratiladi. Suv ta‘minoti og‘ir joylarda yomg‘ir suvini to‘plash va saqlash sig‘imini qurish xarajatining yarmi qo‘llab beriladi.

Yana bir yangilik — Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasidan meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlash loyihalariga kredit ajratishda garov talab qilinmaydi. Bunda sug‘urta polisining o‘zi yetarli bo‘ladi. Dehqonlarga ortiqcha hujjatlarisiz imtiyozli kredit beriladi.

Tomorqa va dehqon xo‘jaligi yerlari, ularda yetishtirilgan mahsulot hisobini yuritish bo‘yicha ham yangicha tizim bo‘ladi. Buning uchun yil yakunigacha tomorqalar va ekin yerlari alohida tasniflanadi. Ularda nima ekanligi “onlayn mahalla” platformasiga kiritiladi.

Yerdan samarali foydalanib, bir sotixda 5 million so‘mdan yuqori rasmiy daromad oloyotgan dehqonlarga yer solig‘ining 90 foizi “keshbek” sifatida qaytarib beriladi. Aksincha, tomorqasiga ekin ekmaganlardan yer solig‘i oshirilgan miqdorda undiriladi.

Hozir bu sohada “raqamli bozor” bo‘lmagan uchun dehqonlar meva-sabzavotga xaridor, qayta ishlovchi va eksportchilar esa mahsulot qidirib yuribdi. Shu bois, ularni o‘zaro bog‘laydigan “market plays” ishga tushiriladi. Oxirgi uch yilda 260 ming gektar yer aholiga bo‘lib berilgan edi. Endi bu takomillashtirilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Jizzax va Toshkent viloyatida bo‘sh turgan 3 ming 300 gektar yer tajriba tariqasida yangicha tartibda ijaraga beriladi. Bunda konturlar 3 gektardan

50 gektargacha yaxlit holda savdoga qo‘yilib, 49 yilga ijaraga beriladi.

Eng muhimi, bu yerlar tuproq tarkibi va sifati tahlili, kafolati suv limitining eng past va eng yuqori chegaralari ko‘rsatilgan holda auksionga qo‘yiladi. Bunda nafaqat shu hududdagi, balki boshqa viloyatdagi tadbirkorlar ham qatnashib, yer olishi mumkin bo‘ladi. Auksion boshlang‘ich narxni pasaytirib borish va bir yo‘la to‘lash sharti bilan o‘tkaziladi. U yerlarning bir qismiga saqlash va qadoqlash quvvatlari qurishga ham ruxsat beriladi.

Kelgusi yildan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun soliq hisoblash tartibi ham o‘zgaradi. Ijaraga berilgan yerning ball-boniteti oshsa, to‘lanadigan soliq o‘zgaraydi, aksincha, tushib ketsa, soliq stavkasi 3 karra oshadi.

Yurtimizda eng ko‘p iste‘mol qilinadigan mahsulotlardan biri kartoshkadir. 290 ming gektarda ekilsa ham, ehtiyojning bir qismi importdan qoplanmaydi. Negaki nav va hosildorlik yaxshi emas.

Shu bois, Kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutiga iqlimga mos, serhosil navlarni yaratish, “in-vitro” usulida yiliga 3 million dona tuganaklar yetishtirib, tarqatish vazifasi qo‘yildi.

Bu yil kartoshkachilikni rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligi jamg‘armasidan 400 milliard so‘m yo‘natiladi. Import qilingan hamda mahalliy yetishtirilgan urug‘lik kartoshkani sotishda qo‘shilgan qiymat solig‘ining 50 foizi “keshbek” sifatida qaytarib beriladi. 2027-yildan kartoshkaga ehtiyoj to‘liq ichki imkoniyat hisobidan qoplanishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash uchun texnikalar yetkazib berish, dehqonlarga qulay lizing mahsulotlari taqdim etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari hududlardagi usta dehqonlar va tomorqa egalari bilan muloqot qildi. Ulardan biri — hovlisidagi issiqxonada yiliga 4 marta hosil olib, yuqori daromad topayotgan qoraqalpog‘istonlik Genjimurat Turdimuratov “Do‘stlik” ordeniga loyiq ko‘rildi.

Mutasaddirlar va bank rahbarlari ushbu yangi tashabbuslarni joriy qilish, 1 million 500 ming aholi bandligini ta‘minlash masalalarini bo‘yicha axborot berdi.

O‘ZA

XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNIMIZ YAXSHILANMOQDA

PASAYGAN YOKI O'ZGARISHSIZ QOLAYOTGAN HOLATLAR HAM BOR

Mamlakatimizda keyingi yetti-sakkiz yilda kechgan keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar hayotimizning har bir jabhasida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayoti, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham aksini topmoqda.

2019-2024-yillarda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari yaratildi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasidagi ustuvor vazifalar asosida mamlakatimizda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ushbu jabhada parlament rolini kuchaytirish uchun davlatimiz rahbarining "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Bugun ushbu hujjat tegishli sohalarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etgan holda, mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarini yaxshilash va xalqaro maydondagi mavqei yanada mustahkamlashga xizmat qilayotir.

Farmon bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi iqtisodiy samaradorlik, inson kamoloti, barqaror rivojlanish va turizm, sog'liqni saqlash, elektron hukumat, global raqobatbardoshlik, ta'lim, gender tenglik va ijtimoiy inklyuzivlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, Adliya vazirligi esa huquq ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflik, boshqaruv sifati kabi siyosiy-huquqiy sohalarida xalqaro reyting va indekslarni yaxshilashga mas'ul etib belgilandi.

Oliy Majlis Senatiga har yili Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tomonidan tayyorlanadigan

mamlakatimizning reytinglardagi o'rini yaxshilash borasidagi milliy ma'ruzani eshitish vakolati berildi. Shunga asosan, yaqinda respublika kengashining 2024-yil davomida O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlar muhokamasida qator ustuvor vazifalar belgilab olindi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, respublikamiz uchun ustuvor bo'lgan 9 ta xalqaro reytingda

"juda yuqori" guruhga ko'tarilgan 17 davlat qatoridan joy oldi.

Jahon bankining 2023-yil uchun e'lon qilingan Statistika faoliyati samaradorligi indeksida respublikamiz o'z ko'rsatkichlarini 17 pog'ona yaxshilab, 217 davlat orasida 62-o'ringa ko'tarildi. Umuman, so'nggi 7 yilda ushbu indeksda O'zbekiston o'z pozitsiyasini 89 pog'ona yaxshilagan.

bo'yicha 18 pog'ona, iqtisodiy erkinlik bo'yicha 49 pog'ona, logistika va innovatsiya bo'yicha 10 pog'ona yuqori ko'tarildi.

"Inson kamoloti hisoboti — 2023/24"ga asosan, O'zbekiston inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha yuqori toifaga kiritilib, 193 mamlakat orasida nufuzli o'rindan joy oldi. Mamlakatimizning ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani aholi farovonligini oshirish, ochiqlik, oshkorlikni ta'minlash borasidagi egzu ishlarining amaliy natijasidir.

2000-2022-yillarda O'zbekistonning Inson kamoloti indeksi ko'rsatkichi 0,603 dan 0,727 gacha, ya'ni 20,6 foiz oshgan. Mazkur yillar oralig'ida yurtimizda kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi 6 yilga, ta'lim yillari 1,2 va o'rtacha ta'lim yillari 1,9 yilga yuqorilagan. Mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromad 2000-yildan 2022-yilgacha taxminan 210,5 foiz oshgan. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda doimiy aholining umr ko'rish davomiyligi ayollarda 76,9, erkaklarda esa 72,5 yoshni tashkil etdi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida aholining o'rta umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, budjetdan tibbiyotga ajratiladigan yillik mablag' hajmini ikki barobar oshirish, onkologiya, yurak-qon tomir, diabet, nafas yo'llari va yuqumli kasalliklar bo'yicha erta o'limni 2,5 barobar kamaytirish hamda sil bilan kasallanish darajasini 100 ming kishiga nisbatan hozirgi 34 nafardan keskin kamaytirish ko'zda tutilgan.

Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun kelgusi yetti yillikda 700 ta poliklinika barpo etilib, 28 ming shifo o'rni yaratiladi va 16 ming shifokor shtati ochiladi. Diabet bilan xastalangan 350 ming, qon tomir kasalligi bor 1,5 million bemor muolaja bilan to'liq qamrab olinadi.

Mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo'yicha 8 pog'ona, elektron hukumat

2000-2022-YILLARDA O'ZBEKISTONNING INSON KAMOLOTI INDEKSI KO'RSATKICHI 0,603 DAN 0,727 GACHA, YA'NI 20,6 FOIZ OSHGAN. MAZKUR YILLAR ORALIG'IDA YURTIMIZDA KUTILAYOTGAN UMR KO'RISH DAVOMIYLIIGI 6 YILGA, TA'LIM YILLARI 1,2 VA O'RTACHA TA'LIM YILLARI 1,9 YILGA YUQORILGAN. MAMLAKATDA AHOHI JON BOSHIGA TO'G'RI KELADIGAN YALPI MILLIY DAROMAD 2000-YILDAN 2022-YILGACHA TAXMINAN 210,5 FOIZ OSHGAN. 2024-YILNING 1-YANVAR HOLATIGA KO'RA, O'ZBEKISTONDA DOIMIY AHOHLINING UMR KO'RISH DAVOMIYLIIGI AYOLLARDA 76,9, ERKAKLARDA ESA 72,5 YOSHNI TASHKIL ETTI.

O'zbekistonning o'rni yaxshilangan. Jumladan, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida mamlakatimiz o'tgan yili avvalgi hisobot davriga nisbatan 6 pog'ona ko'tarilib, 193 davlat orasida 63-o'rinni egalladi. Rivojlanish bo'yicha esa "yuqori" guruhdan

Bankning ayollar, biznes va qonun indeksida esa mamlakatimiz 48 pog'ona yuqorilab, 190 davlat orasida 91-o'rinni egallagan e'tiborga molik. "Gender Data Compass" tomonidan 2023-yilda chop etilgan gender ma'lumotlarining mavjudligi reytingida esa O'zbekiston 185 mamlakat orasida 56-o'rinni egalladi.

"Open Data Watch" reytingida (jumladan, jins bo'yicha taqsimot) O'zbekiston 195 mamlakat orasida 30-o'rin, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 1-o'rinda turibdi. Albatta, bunday ijobiy natijalarga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bular zamirida davlatimiz rahbarining qat'iyati va siyosiy irodasi mujassam.

Mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo'yicha 8 pog'ona, elektron hukumat



Mavluda XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari

Binobarin, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim omillar ko'zguisidir. Bu jihatlar mamlakatdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam.

Yurtimizning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida

Bundan olti asr muqaddam buyuk sarkarda Amir Temurning "Qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing!" degan so'zlari Sohibqiron davlatning ulkan salobatini ifodalashi qatorida yurt aholisi tinchlik va farovonlik ortidan hamisha bunyodkorlik ishq bilan yashaganini bildiradi. Sohibqironning yana bir gapi bor: "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir".

Maqolamizni bejiz bu fikrlar bilan boshlamadik. Ikkinchi Renessansni yuzaga keltirgan Amir Temur va temuriylar davlatidan so'ng oradan asrlar o'tib, mamlakatimiz Uchinchi Renessans sari dadil qadam qo'yar ekan, uzviy hamohanglikni ham kuzatish mumkin.

Bugun ham Oqsaroy singari osmonga bo'yagan muhtasham binolar bunyod etilyapti. E'tiborlisi, shu imoratlar tadbirkor, azmi qat'iy ishbilamonlar tomonidan foydalanishga topshirilmogda.

Mamlakatimiz aholisi har yili 1 million nafarga ko'payib borayotgani uy-joyga bo'lgan talabni ham oshiryapti.

Yurtimizda 2024-yilda 100 ming xonadonli ko'p qavatli uylar foydalanishga topshirilgandi. Joriy 2025-yilda esa 120 mingta uy-joy qurilishi rejalashtirilgan. Ayniqsa, Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, barcha hududlarda barpo etilayotgan yangi massivlar aholining uy-joyga talabini qondirishda muhim o'rin

JAHON BANKINING 2023-YIL UCHUN E'LN QILINGAN STATISTIKA FAOLIYATI SAMARADORLIGI INDEKSIDA RESPUBLIKAMIZ O'Z KO'RSATKICHLARINI 17 POG'ONA YAXSHILAB, 217 DAVLAT ORASIDA 62-O'RINGA KO'TARILDI. UMUMAN, SO'NGGI 7 YILDA USHBU INDEKSDA O'ZBEKISTON O'Z POZITSIYASINI 89 POG'ONA YAXSHILAGAN.

Bunyodkorlik

"YANGI O'ZBEKISTON" MASSIVLARI HUDUDLAR OBOD QILINADI, SAVDO VA XIZMATLAR ORTADI

tutmoqda. Bunyod bo'lishi bilan shaharcha ko'rinishini olayotgan bunday massivlar bugun Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Boysun, Jarqo'rg'on, Angor va Termiz tumanlarida ham qad rostlamoqda. Ularning eng yirigi vohaning olis tumanlaridan biri — Sariosiyo tumanining Lutfkor mahallasida 31

gektardan ortiq maydonda bunyod etilyapti. Bu yerda 2026-yilgacha 5, 7, 9 qavatli, jami 2322 ta xonadonga ega 78 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshiriladi.

Bu pishiq imoratlarni bunyod etayotganlarning barchasi o'zimizning milliy kadrlar.

ANGOR TUMANIDAGI SHARQ GULI MAHALLASI HAM BUGUN QURILISH VA BUNYODKORLIK MANZILIGA AYLANGAN. HUDUDDA 11,2 GEKTAR YER AJRATILGAN BO'LIB, 1005 XONADONLI JAMI 43 TA UY QURILISHI REJA QILINGAN. 2024-YILDA ESA YANA 17 TA KO'P QAVATLI UY O'Z EGALARIGA TOPSHIRILDI.



Yangi O'zbekiston haqidagi ilk taassurotlar mamlakat chegaralari hududlaridan boshlanadi. Surxondaryo viloyati uchta davlat bilan chegaradosh, mamlakatni Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi bilan bog'lovchi muhim transchegaraviy koridorda joylashgan. Yurtga kirgan odamning ko'zi "Yangi O'zbekiston" massivlariga tushadi.

Sariosiyoda ham, Termizda ham shunday, — deydi Prezidentning Sariosiyo tumani xalq qabulxonasi mudiri Oydin Jo'rabekova. — Tumanimizda bunyod etilayotgan massiv ham zamonaviy shaharozlik andozalari,

zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari, barcha ijtimoiy soha obyektlarini o'zida jamlagan mo'jaz manzil.

Jarqo'rg'onida bunyod etilgan massiv ham bugun yuzlab oilalarning hayotini o'zgartirib, ularga quvonch ulashmoqda. Bu yerda umrguzaronlik qilayotgan yurtdoshlarimiz doimiy turar joyiga ega ekanidan baxtiyor. Bu massivda hozirgi kungacha jami 47 ta, jumladan, o'tgan yilning o'zida 532 xonadonli 27 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Joriy yilda 10 tasida qurilish ishlari davom etmoqda.

umr ko'rish davomiyligi ortishi bilan birga aholi barcha qatlamlarning salomatligi yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Bu sa'y-harakatlar orqali bolalar o'rtasida irsiy kasalliklar ikki barobar kamayadi. Har yili ikki marotaba 55 va undan katta yoshdagi fuqarolarni 100 foiz profilaktik ko'rikdan o'tkazish va sog'lomlashtirish yo'lga qo'yiladi.

O'z navbatida, mazkur ustuvor vazifalarning samarali va sifatli amalga oshirilishi Inson kamoloti indeksidagi ko'rsatkichlarimizni yaxshilashga imkon yaratadi. Bu indeksda mamlakatimiz mavqei yanada oshirish maqsadida bosqichma-bosqich majburiy sug'urta tizimini joriy etish choralarini ko'rish, bunda daromadlar mutanosibligini hisobga olish, majburiy sug'urta tizimini shakllantirishda Germaniya va Norvegiya tajribasiga asosan xususiy sektor amaliyotiga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq.

Keyingi yillarda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichi yaxshilab borayotganiga qaramay, ayrim yo'nalishlardagi o'rni pasaygan yoki o'zgarishsiz qolmoqda. "Huquq ustuvorligi indeksi", "Korrupsiyaning mavjud emasligi indikator", "Qonunlarga rioya qilish indikator", "Fuqarolik odil sudlovi indikator" kabi reyting va indekslar shular jumlasidan.

Mazkur yo'nalishlarda ish samaradorligini yanada oshirish, mamlakatimizdagi siyosiy-huquqiy sohalarida so'nggi islohotlar haqida ma'lumotlar yetarli bo'lmagan xalqaro reyting tuzuvchi tashkilotlar va ularning axborot manbalari xabaridorligini oshirish hamda tegishli vazirlik va tashkilotlar faoliyatini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Adliya vazirligi hamda mas'ul davlat organlari va tashkilotlari vakillari tarkibida ishchi guruhlar tuzib, qonunlar samaradorligini joyiga chiqqan holda o'rganishga alohida e'tibor qaratish lozim deb bilamiz. O'rganish natijalariga ko'ra, qonunlar samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash, ular ijrosini to'g'ri tashkil qilish uchun to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish, yetarli samara bermayotgan qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash zarur.

Umuman olganda, O'zbekiston xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va parlament nazoratini kuchaytirish orqali mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi albatta. Buning uchun tizimli yondashuv, shaffoflik va hamkorlik g'oyat muhim. Parlamentning faol ishtiroki ushbu jarayonda hal qiluvchi omildir. Shu nuqtayi nazardan, Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mita va komissiyalar ham bu borada o'zlarining sohaviy yo'nalishlaridan kelib chiqib, tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda faol ishlaydi.

— Qayga qaramang, hududlar obod bo'lmoqda. Odamlarning o'z yashash manziliga, yurtiga bo'lgan dunyoqarashi o'zgarayapti, savdo va xizmatlar ko'paymoqda, — deydi tumandagi "Qorayotq" MFY xotin-qizlar faoli Nazokat Bobonazarova. — Bu bunyodkorliklar jarqo'rg'onliklarning ham quvonchiga sabab bo'lmoqda. Negaki kechagina uy-joy qayg'usida yurgan yurtdoshimiz bugun shinamgina uyiga mehmonga chaqiryapti.

Prezidentimiz raisligida shu yilning 23-yanvar kuni ipoteka dasturi doirasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida ham aholini uy-joy bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga doir qator vazifalar belgilab berildi.

Xususan, yurtdoshlarimiz endi qurilish boshidan ipoteka va subsidiya olish, uy bitmasdan ham boshqa odamga sotish imkoniga ega bo'lmoqda. Eng muhimi, 2025-yilda 70 mingta xonadonning ipoteka krediti orqali sotilishiga sharoit yaratiladi. Shundan 30 ming xonadon boshlang'ich badaliga davlat byudjetidan subsidiya to'langan holda daromadi yuqori bo'lmagan oilalarga ajratiladi.

Angor tumanidagi Sharq guli mahallasi ham bugun qurilish va bunyodkorlik manziliga aylangan. Hududda 11,2 gektar yer ajratilgan bo'lib, 1005 xonadonli jami 43 ta uy qurilishi reja qilingan. 2024-yilda esa yana 17 ta ko'p qavatli uy o'z egalariga topshirildi.

— Bunday massivlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Uy-joylarning sifat va tannarxi xalqimiz imkoniyatiga mos ekanini e'tiborga molik, — deydi "Sharq guli" MFY raisi Bekzod Doniyorov.

Butun mamlakatimiz ulkan qurilish maydoniga aylangani kabi Surxondaryo viloyatining qaysi shahar-tumaniga bormang, ko'p qavatli, bir-biridan go'zal binolarni ko'ramiz.

2026-yilgacha Surxondaryo viloyatida 6 ming xonadonli 238 ta ko'p qavatli uy-joy qurilishi rejalashtirilgan. Albatta, bularning barchasi inson qadrini ulug'lash, aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatlari ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyga ega bo'lish sharoiti mavjud, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlangan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli mamlakatdir.



Dilmurod ARTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

O'zbekiston mana shunday katta va mas'uliyatli, sharafli vazifani zimmasiga olar ekan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bu tamoyil mustahkamlab, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlarini bilan bog'liq normalar 3

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari sohani rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Ijtimoiy davlat prinsiplariga sodiqlik: 2025-yil uchun ustuvor vazifalar

2024-yil 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari ijtimoiy himoya bo'yicha qilingan 34 ta muhim yangilikka qo'shimcha 28 ta yangi tashabbusni ilgari surdi. Mazkur tashabbuslar quyidagi muhim jihatlari bilan alohida e'tirofga sazovor.

Birinchisi, ijtimoiy himoya sohasini ta'limni rivojlantirish orqali isloh qilish. Jumladan, ta'limning har bir bosqichida ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor qaratish maqsad qilinmoqda.

Eng avvalo, oilaviy bog'cha o'rinlarining 15 foiziga kambag'al oila farzandlari qabul qilinib, bog'cha to'lovi qisman qoplab berilishi nazarda tutilmoqda. Shuningdek, nogironligi bor bolalar uchun har bir tumanda bittadan bog'chada inklyuziv ta'lim guruhini ochish ham muhim tashabbuslardan.

7 ta tibbiyot oliygohida reabilitatsiya kafedralari ochiladi, professor-o'qituvchilar Janubiy Koreya tajribasi asosida qayta o'qitiladi. Respublika reabilitatsiya markaziga Janubiy Koreya va Yaponiyadan ekspertlar olib kelinib, mahalliy mutaxassislar malakasi oshiriladi.

Nogironligi borlarga beriladigan protez va reabilitatsiya vositalari ro'yxati 18 tadan 30 taga, mablag'i esa 1,5 barobar oshiriladi. Endi ro'yxatga yana 7 turdagi vosita qo'shiladi.

Uchinchisi, aholini uy-joy bilan ta'minlashda yangicha yondashuvga o'tish. 400 ta ko'p qavatli ijtimoiy uyda 25 ming kishi istiqomat qiladi. Lekin ular yaqin qarindoshlari va odatiy yashash sharoitidan ancha uzoqlashib qolayotgani ta'kidlandi. Shu munosabat bilan ehtiyojmand aholini bitta ijtimoiy uy-joyga joylashtirishdan voz kechiladi. Ularga o'zining mahallasiga yaqin joydagi uyni ijaraga olishga ruxsat etiladi, xarajati qoplab beriladi.

To'rtinchisi, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish. 2024-yil tadbirkorlar nogironligi bor 40 ming kishini ishga oldi. Albatta, bu ularga berilayotgan imtiyoz va yaratilayotgan sharoitlar samarasi. Endi buni yanada kengaytirish maqsadida 1-yanvardan nogironligi bo'lgan ishchilar uchun ijtimoiy soliq 1 foiz etib belgilandi. Korxonalariga surdortarjimon, psixolog va ko'zi ojizlarga hamrohlik xizmati xarajati uchun 50 million so'mgacha subsidiya ajratiladi. Bunday odamlarni ishga joylangan xususiy bandlik kompaniyalariga 500 million so'mgacha grant beriladi. Ushbu kompaniyalar ishlash istagi bor odamlarni aniqlab, ularni o'qitadi, korxonaga talabiga moslashtiradi, ish davrining dastlabki 6 oyida hamrohlik qiladi.



Inson qadri uchun



HAYOTDAN ROZI BO'LIB YASHASH SAODATI

MAMLAKATIMIZNING IJTIMOY SIYOSATI BARCHAGA USHBU BAXTNI KAFOLATLAYDI

barobar ko'paytirildi. Xususan, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajalaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Bugun mamlakatimizda ijtimoiy davlat prinsiplarini amalga oshirishning huquqiy mexanizmi takomillashtirib bormoqda. Ijtimoiy himoya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar katta ahamiyatga ega. Bu borada eng muhim hujjatlardan biri "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmondir. Mazkur farmonda aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Farmon bilan tasdiqlangan strategiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va BMTning Bolalar jamg'armasi tomonidan 2020-yilda tayyorlangan "O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash" natijalari va tavsiyalariga asosan ishlab chiqilgan.

Mazkur sohadagi yana bir muhim hujjat "Aholiga sifatlari ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmondir. Mazkur hujjat doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, uning hududiy boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Nogironlikni belgilash tizimini

Kambag'allikni qisqartirishda kambag'al oilalar farzandlarini chet tili, IT va kasb-hunarga o'qitish muhim o'rin tutadi. Bu borada to'garaklar ochib, kambag'al oilalardagi 118 ming yoshni o'qitishni boshlash vazifasi qo'yildi. Eng muhimi, to'garak xarajati 80 foizgacha byudjetdan qoplanadi.

954 ta maktabda inklyuziv sinf tashkil qilinib, nogironligi bor 1800 bola ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi. Harakati cheklangan bolalarga maktabga kelib-ketish xarajatining 75 foizini qoplash tizimi joriy qilindi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimi ham bu boradagi ishlardan chetda qolmasligi kerak. Davlatimiz rahbari kambag'al oilalar farzandlarini tayyorlab, 2025-yilda 3,5 ming yoshni oliygohga grant asosida qabul qilish zarurligini qayd etdi.

Ikkinchisi, tibbiy yordamni yangi bosqichga olib chiqish. Bugun kambag'al oilalardagi 460 ming odam tibbiy yordamga muhtoj. Joriy yilda muhtoj odamlarning jarrohlik amaliyoti uchun Tibbiy sug'urta jamg'armasiga qo'shimcha 185 milliard so'm ajratiladi. Ijtimoiy daftarlar mablag'i faqat kambag'al oilalar yashash sharoitini yaxshilash, tibbiyot, ta'lim xizmatlari ko'rsatish va daromadini oshirishga sarflanadi. Adolat ta'minlanishi uchun endi bu mablag' tumandagi kambag'allar soniga qarab taqsimlanadi.

Tibbiyot sohasida nogironligi borlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ham muhim tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, soha uchun mas'ullar 2025-yilda reabilitatsiya bo'yicha keskin o'zgarish qilishi kerakligi qayd etildi. Buning uchun har bir viloyat, tuman shifoxonasida reabilitatsiya xizmatlari yo'lga qo'yiladi. 12 ta nogironlarni reabilitatsiya qilish markazida ergoterapiya, fizioterapiya, davolash-gimmastika xizmatlari qamrovi 5 karra oshiriladi.

Beshinchisi, ijtimoiy xizmatlarni soddalashtirish. Fuqarolar 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun tug'ilganlik, nogironlik, pensiya, talablik guvohnomasi, bank kartasi kabi 10 dan ortiq hujjatlarni ko'tarib yurishga majbur edi. Davlatimiz rahbari bunday ovoragarchilikka chek qo'yish vaqti kelganini ta'kidlab, barcha hujjatlar o'rni bosadigan bitta — ijtimoiy karta joriy etilishini e'lon qildi. Ijtimoiy karta bilan jamoat transportida bepul yurish, elektr, gaz va o'qish xarajati uchun kompensatsiya olish mumkin. Nafaqa va yordam puli ham shu kartaga tushadi. Bu tizim ayni paytda Toshkent shahri va Yangiyo'l tumanida sinovdan o'tkazilmoqda. Yil yakunigacha esa hamma joyda ishga tushiriladi.



Qonun ijodkorligi va parlament nazorati

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasini rivojlantirishda parlamentning o'rmi katta. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlarda qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil yo'nalishida o'z o'miga ega bo'lishi lozim. Bu borada quyidagi masalalarga e'tibor qaratish muhim, nazariyda.

Birinchidan, 2016-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida"gi qonunni bugunning talablariga moslashtirish lozim. Jumladan, ijtimoiy himoya sohasida eng muhim vakolatlariga ega organ — Ijtimoiy himoya milliy agentligining ijtimoiy xizmatlar

sohasidagi vakolatlarini belgilash, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ayni yo'nalishdagi vakolatlarini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, o'tgan yil 13-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi vazifalardan kelib chiqib, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari ishtirokiga oid normani hamda qonunda belgilangan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish shakllari va turlarini tubdan takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya sohasida "ijtimoiy shartnoma" institutini keng joriy qilish kerak. Xalqaro tajribada "Shartli pul o'tkazish" deb ta'riflanuvchi ijtimoiy kelishuv dasturlari mavjud. Ular odatda kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy tizim samardorligini oshirish maqsadida kam ta'minlangan aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib qo'llanadi.

Misol uchun, Turkiyada ijtimoiy kelishuv tizimida tibbiyot va ta'lim sohasiga ko'proq ustuvorlik berilgan. Xususan, kam ta'minlangan onalarga muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish sharti bilan 9 oy davomida bepul tibbiy va moddiy yordam (nafaqa) beriladi. Bundan tashqari, 5 yoshgacha bolalarni muntazam tibbiy ko'rikdan o'tkazish sharti bilan ota-onalarga tibbiy va yordam ko'rsatiladi. Kambag'allik tufayli bolalarning maktabga qatnovini ta'minlay olmaydigan oilalarga maktabga qatnov davomatini to'liq ta'minlanida nafaqa beriladi.

Uchinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlarni tizimli davom ettirish va mazkur sohadagi qonunchilikni tizimlashtirish maqsadida Ijtimoiy kodeks qabul qilish zarurati mavjud.

Ijtimoiy davlat prinsiplariga sodiq mamlakatlarda mazkur sohadagi munosabatlarga yagona Ijtimoiy kodeks orqali tartibga solinadi. Kodeks qabul qilishning ikkita muhim jihati

bor: birinchisi, barcha standartlar bitta hujjatga jamlanadi, ikkinchisi, davlat organlarining bu boradagi vazifalari aniq qilib belgilanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, Ijtimoiy kodeks Germaniya, Qozog'iston va boshqa davlatlarda mavjudligini ko'ramiz. U, asosan, davlat pensiya ta'minoti, tibbiy yordam va nogironligi bor shaxslarga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmat munosabatlarni tartibga soladi.

To'rtinchidan, parlament nazorati yo'nalishida parlament nazorati shakllaridan samarali foydalanish lozim. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 2025-yilda 1 milliarddan ortiq kishini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha katta marra olingan. Bu maqsadga 46,5 trillion so'm yo'naltiriladi. Bundan tashqari, 100 ming gektar yer dehqonchilik va bog'dorchilik uchun 200 ming kambag'al oilaga ijaraga beriladi. Mazkur mablag' samarali ishlatilishi va ajratiladigan yerni haqiqiy egasiga berishda parlament nazorati shakllaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 18-noyabr kuni parlament a'zolari bilan uchrashuvda kambag'allikni qisqartirish borasida ulkan vazifalarni amalga oshirishda deputatlarimiz o'z okrugida eng faol ishtirokchi va targ'ibotchi bo'lishi zarurligini ta'kidlagan edi. Prezidentimizning kambag'allik darajasiga tushib qolganlarning ongini o'zgartirish, ularda erangi kunga ishonch va kelajakka intilishni qo'llab-quvvatlaydigan siyosiy kuch, albatta, avvalo, deputatlar bo'lishi zarur, degan fikri bu borada biz — xalq vakillarining oldida ko'plab vazifalar turganini anglatadi.

Ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda parlamentning o'rmi va roli g'oyat muhim. Ayniqsa, soha bo'yicha qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish, qonun hujjatlarini bugunlik talablariga moslashtirish va bosqichma-bosqich soha qonunchiligini unifikatsiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Munosabat

Prezidentimiz raisligida o'tgan yil 13-dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu jahbdagi ishlar tahlil etilib, amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Shunga muvofiq, jahon tajribasi va hayot talabini inobatga olgan holda qator takliflar ishlab chiqildi. Joriy yil 28-yanvarda davlatimiz rahbari ijtimoiy yordamning manzilligini oshirish, nogironligi bo'lganlarni parvarishlashning yangi tizimiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda bu jahbdagi qilingan ishlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi yangi bosqichga olib chiqilib, yagona markazlashgan tizim sifatida shakllantirildi. Tuman va shaharlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari, har bir mahallada ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Mahalla darajasida ijtimoiy himoyaga muhtoj

ISHLAR MANZILLI YO'LGA QO'YILSA

ajratilayotgan ko'mak haqiqiy egasiga yetib boradi

oilalarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish tizimi yaratildi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'maklashish, jamiyatga integratsiya qilish, sifatlari protez-ortopediya va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash tizimi takomillashtirildi. Protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari turlari 18 tadan 30 taga, qoplab beriladigan mablag'lar miqdori o'rta 10 barobargacha oshirildi.

Eng muhimi, ehtiyojmandlarga zarur vositalarni elektron tarzda tanlab olishi imkoniyati yaratildi. Bunda muhtoj shaxslarga vaucherdan (davlat tomonidan qoplab beriladigan mablag') foydalanilgan holda elektron tijorat orqali tegishli protez moslamasi yoki reabilitatsiya vositasini o'z tanloviga ko'ra bevosita o'zi, qonuniy vakili yoki ijtimoiy xodimlar ko'magida xarid qilishi mumkin.

Nogironligi bor bolalarga alohida mehri e'tibor ko'rsatish xayrli ish. Shu maqsadda ixtisoslashgan 66 ta maktab va maktabgacha

ta'lim tashkilotlarida nogironlikning og'ir turlariga chalingan bolalar uchun "G'amxo'rlik" guruhlari tashkil etildi. Mazkur guruhlarga 500 dan ortiq bola yo'naltirildi. Bu sa'y-harakatlar natijasida ularning ota-onalari yoki o'rni bosuvchi shaxslarga ijtimoiy hordiq chiqarish va biror-bir mehnat faoliyatini bilan shug'ullanish imkoniyati yaratildi. "G'amxo'rlik" guruhlari har bir bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyalash va jamiyatga moslashuvda oilaga yordam bermoqda.

Endi bu yo'nalishdagi ishlar rivojlantirilib, nogironligi bo'lgan 3-18 yoshlilar uchun davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini yo'lga qo'yish taklif etilmoqda. Unga bolalar ota-onalari bilan tuzilgan ijtimoiy shartnoma hamda Psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida qabul qilinadi. Joriy

yil yakuniga qadar bu xizmatlar bilan og'ir nogironligi bo'lgan 2 mingga yaqin bolani qamrab olish rejalashtirilmoqda. Bu ularning onalari uchun ishlash va ta'lim olish kabi imkoniyatlar yaratib, oila farovonligiga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Bolalar salomatligi" axborot tizimi ishga tushirilib, har bir farzandga qo'yilgan tashxis tahlil qilib boriladi. Ularga tibbiy, reabilitatsiya, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar kompleks ko'rsatiladi. Bunday muassasalarga subsidiya va xaridlar uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi. Ota-onalarning kunduzgi parvarish xizmatidan foydalanilgan uchun oyiga 3 million so'mgacha to'lovidan soliq olinmaydi.


Ilgari o'z-galalar parvarishiga muhtoj shaxslarni aniqlash, e'tirof etish va ularga xizmatlarni belgilash uchun

Ushbu maqolani qoraqalpoq tilida ham o'qish uchun QR-kodni skaner qiling!



Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

50 kungacha vaqt, o'ndan ortiq hujjat yig'ish, mahalliy hokimlar qorari chiqishni kutish talab etiladi. Hozir mazkur tizim to'liq raqamlashtirilib, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori qarori bilan 5 ish kunida o'z-galalar parvarishiga muhtoj shaxs sifatida





ADOQJONBO'ZLIK FERMER 1 MILLION DOLLAR DAROMAD TOPADI

Bir paytlar qishloqda sabzavotchilik fermer xo'jaligi ochilganida ko'pchilik ajablanib qo'ygandi. Sababi, bu atrofda deyarli barcha xonadonlarda sabzi-piyozdan tortib, pomidorigacha yetishtiriladi. Hech kim bozordan bu kabi mahsulotlarni sotib olmaydi. Eng qiziq jihati, biror fermer qishloq xo'jaligi ekinlari ekmaydi. Ko'pi paxtachilik, g'allachilik bilan andarmon. Yangi fermer hosilini olisroq bozorda sotmasa, xaridor topishi ham mushkulligini ayrimlar xo'jalik rahbari Sherzod Mahmatmurodovga ham aytdi. Fermer esa miyig'ida kulib qo'yaverdi.

Zotan, fermerning maqsadi katta edi. Birinchi yili mehnati uncha samara bermadi. Qishloq odamlarining gap-so'zi ko'paydi. Bunga e'tibor qilmagan Sherzod aka izlanib, surishtirib qishloqda hali hech kim ekib ko'rmanan brokkoli karami niholini topib keldi. Yemi tayyorlab, ikkilanmay ekdi. Surxondaryo tarafda bu bo'yicha tajribali mutaxassis borligini eshitib, yo'lga chiqdi. Ikki-uch kunda brokkoliga ishlov berish sirlarini yaxshi o'zlashtirib qaytdi. O'zi agronomlik qilib, hosil mo'l bo'lishi uchun kechayu kunduz tinim bilmadi. Kuzga borib, mehnati samarasi ko'zga ko'rinda boshladi. Karam me'yorida pishib yetilgach, dalaning o'zida xaridorlar yaxshigina narx taklif qildi. Hisoblab chiqsa, xarajat qoplanib, foyda ham yomon bo'lmayotgandek. Tezda ulgurji sotib yubordi.

Yosh fermer avvaliga hosilini yaxshi pulladim, deb yurgandi. Keyinchalik mahsulot ancha arzon ketganini bildi. Karam sotib olganlar ustiga ko'proq pul qo'yib, xorijga sotib yuborgan. Foydasi esa dehqonlikdan ikki barobar ziyod bo'lgan. Bu unga saboq bo'ldi. Endi puxta bo'lishi kerak. Qolaversa, tajriba oshgani sari shunga yarasha ish tartibi o'zgarib boraveradi. Tinim bilmay ishlab, dehqonchilik mahsulini zo'r yetishtirgan bilan ish bitmasligini anglab yetgandi. Kelgusi yilda boshqacha ish qilishi aniq. Bunga hozirdanoq tayyorgarlik ko'rish lozim. Aks holda, ertaga kech bo'lishi mumkin.

Keyingi mavsum uchun yer haydash boshlandi. Fermer shu vaqtning o'zida xaridor izlashga tushdi. Endi ichki bozordan emas, aksincha, to'g'ridan to'g'ri xorijdan hamkor topishga harakat qildi. Intilishi zo'ya ketmadi. Tez orada rossiyalik ishbilanmonlardan

— Fermer xo'jaligimizda doimiy 5, mavsumiy 60 ishchi mehnat qiladi, — deydi fermer. — Mart oyida yana ish o'rni ochiladi. Sababi, qo'shimcha yerga ekin ekish ishlari boshlab yuboriladi. Misol uchun, jami 50 gektar yerga brokkoli karami ekishimiz kerak. Yaqinda karam ko'chatlarini Angor tumanidagi dehqonlarga buyurtma qildik. To'liq shu karamdan ekamiz. Bundan tashqari, takroriy ekin ekishni ham yo'lga qo'yganmiz. Hozir sotishga tayyor turgan "Buxarest" karamidan bo'shagan yerga boshqa sabzavot urug'i sepiladi. Misol uchun, piyoz, pomidor kabi bozorbop ekinlardan. Nasib etsa, bu yilgi xirmonimiz har yilgidan ham barakali bo'ladi. Shuning hisobiga yil yakuniga qadar eksport qiymatini bir million dollarga chiqarishga bel bog'ladi.

Ozgina yerdan million dollarlik mahsulot sotib bo'larmikan, degan savol paydo bo'lishi aniq. Bizda ham shu savol bor edi. Aslida, bunga yetarlacha asoslar mavjud. Fermer tajribasini keng targ'ib qilish maqsadida Adoqjonbo'z mahallasida yangi qadam tashlangan.

Viloyat hokimligi tashabbusi bilan mahalladagi ishsiz oilalarga "Bir hudud — bir mahsulot" tamoyili asosida auktsion orqali 50 sotixdan yer berilyapti. Aynan "Nurmanova Xurshida" fermer xo'jaligi tajribasiga tayangan holda yangi dehqon xo'jaliklari yerida karam ekilishi belgilangan.

— Mahallamizning asosiy drayveri sabzavotchilik, — deydi "Adoqjonbo'z" MFYDagi hokim yordamchisi Baxtiyor Ravshanov. — Aholi bandlegini ta'minlash maqsadida shu yil boshidanoq yangi loyihalarni amalga oshirishga kirishdik.



sabzavotni sotib olish taklifi keldi.

— Aslida, faqat ichki bozorga mahsulot chiqaraman, deb yurgandim, — deydi Qamashi tumanidagi "Adoqjonbo'z" MFY hududidagi "Nurmanova Xurshida" fermer xo'jaligi raisi Sherzod Mahmatmurodov. — Lekin chet elga ham bemaol eksport qilish uchun keng imkoniyat yaratilgan ekan. Faqat bundan foydalanishda ikkilangandik. Endi esa barchasi iziga tushib ketdi. Avvaliga kamroq sotgan bo'lsak, asta-sekin hajmini ko'paytirib boryapmiz. Birinchi yili yuz ming dollarlik brokkoli eksport qildik. O'tgan yili ikki yuz ming dollarga chiqdi. Joriy yilda yanada ko'p sotish nihayitidamiz.

Sherzod aka tajribasi ortgani sari tarmog'ini yanada kengaytirishga intilmoqda. Hozir 18 gektar o'zining hamda 12 gektar ijara asosida olingan yerga karamning "Buxarest" navini ekan. Taxminan ming tonna hosil olish rejalarishtirilmoqda. Yig'ishtirib olingan karam to'liq eksport qilinadi. Demak, tez orada savdo boshlanib, Adoqjonbo'z karami Rossiya bozorlari sari jo'natila boshlaydi. Bundan tashqari, 4 gektar yerda to'qsonbosti ekin sifatida sarimsoqpiyoz ham yetishtirilmoqda. Fevralning o'tralarida 10 gektarga kartoshka urug'i qadaldadi. Shu kunlarda yer haydalib, kartoshka uchun jo'yaklar olinmoqda.

Jumladan, 38 gektar yer aholiga auktsion orqali ajratilmoqda. Bunda 76 fuqaroning 50 sotixdan yerda dehqonchilik qilishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ishsiz kishining birdan ish boshlab ketishga qurbi yetmaydi. Shuni inobatga olib, bank tomonidan 30 million so'mdan imtiyozli kredit ajratilmoqda. Kredit naqd pul shaklida fuqarolarga berilmoqda. Fermer yemi ekin ekishga tayyorlashda yordam beradi. Brokkoli nihollarini ham o'zi yetkazadi. Muntazam tajribasi bilan o'rtoqlashib boradi. Kerakli maslahatini ayamaydi. Texnika orqali ishlov berish, suv tortib kelishdagi muammolarni bartaraf etadi. Hosil yetilgach, fermer shu joyning o'zida sotib oladi. Dehqon xo'jaligi egalari uchun bu juda qulay imkoniyat.

Aholi uchun yaratilayotgan qulayliklar, "Bir hudud — bir mahsulot" tamoyiliga asoslangan ish tajribasi samara berishi shubhasiz. Bu odamlarni daromadli qilib, turmushini yaxshilash bilan birga, yetakchi fermerlar qatoriga kirish, kelajakda mahsulotini Yevropa bozorida sotishga xizmat qiladi.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SUG'ORISHDA KORAZM TAJRIBASI

XARAJATNI YO'QOTIB, FOYDANI KO'PAYTIRADI

Farhod QO'ZIYEV,
Qishloq xo'jaligi vazirligining Zamonaviy sug'orish agroteknologiyalarini joriy qilish boshqarmasi boshlig'i

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Lekin, shu bilan birga, sug'orish uchun sarflanayotgan suv va energiya resurslari miqdori yuqorilgicha qolmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan bir gektar maydonni sug'orish uchun har yili o'rtaacha 9,5-10 ming kub metr suv sarflanayotgan bo'lsa, 1 kilovatt elektr energiyasi uchun 550-600 so'm xarajat qilinmoqda. O'tgan yilning 7-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu jihat alohida qayd etilgan edi.



Bu borada xorazmlik dehqonlarning o'ziga xos tajribasi bor. Ular nasos agregatlariga quyosh paneli o'rnatish orqali nafaqat ehtiyojlarini qondiriyapti, balki ortiqcha elektr tokini davlatga sotishni ham yo'lga qo'ygan. Buning ortidan oyiga qo'shimcha 7-8 million so'm daromad olmoqda.

Sahroda yog'ingarchilik ko'payib, boshqa joylarda qurg'oqchilik kuchayotgan, ya'ni tabiiy mutanosiblik izdan chiqayotgan bir pallada mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kanallarni betonlash bo'yicha tanlangan yo'l to'g'ri ekanini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Suv va energiya resurslarini eng ko'p iste'mol qiluvchi sohalardan biri — qishloq xo'jaligi. Bunda, ayniqsa, nasos agregatlarining ulushi katta. Shu bois, yig'ilishda joriy yil "Nasoslar samaradorligini oshirish yili" bo'lishi alohida ta'kidlanib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda Xorazm tajribasini kengaytirish maqsadida har yili 1000 ta fermer xo'jaligini yangi tizimga o'tkazish yuzasidan topshiriq berilgandi. Shundan kelib chiqib,

yurtimizdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning paxta va g'alla maydonlarini ichki nasos agregatlari orqali sug'orish ishlari hamda elektr energiyasi iste'moli o'riganib chiqildi.



Agar tomchilatib sug'orish tizimiga o'rnatilgan nasos agregati dvigatelinig quvvati 37 kilovatt-soat va suv chiqarish qobiliyati 150 kub metr soat bo'lsa, bunda nasos agregati ushbu paxta maydonini sug'orish uchun mavsum davomida o'rtaacha 37,5 ming kilovatt elektr energiyasi yoki 33,7 million so'm mablag' sarflaydi.

Ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda 700 ming gektarga yaqin paxta va g'alla maydoni ularning o'zlari hisobidagi nasos agregatlari orqali sug'oriladi. Ushbu ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash uchun nasos agregatlari tomonidan har yili o'rtaacha 600-700 million kilovatt elektr energiyasi sarflanadi. Bu esa, o'z navbatida, paxta va g'alla yetishtirish xarajatlari ko'payishiga olib keladi. Shu sababli mazkur xarajatlarning bir qismini qoplab berish uchun davlat byudjetidan subsidiya ajratib kelinmoqda. Biroq iste'molchilar hisobidagi nasos

agregatlarining 4100 tadan ortig'i elektr energiyasi iste'moli yuqori dvigatellar bilan jibozlangani, shuningdek, aksariyati ma'nan eskirgani sababli ularning yillik elektr energiyasi iste'moli yuqori va foydali ish ko'rsatish qobiliyatini pastligicha qolmoqda.

Bugungi kunda paxta va g'alla yetishtiruvchilar hisobidagi nasos agregatlari 1 gektar maydonni sug'orish uchun o'rtaacha ming kilovatt elektr energiyasi sarflanmoqda.

Shulardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, nasos agregatlarini muqobil energiyaga o'tkazish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 40 gektar paxta maydonini tomchilatib sug'orish uchun mavsum davomida o'rtaacha 152 ming kub metr suv talab etiladi. Agar tomchilatib sug'orish tizimiga o'rnatilgan nasos agregati dvigatelinig quvvati 37 kilovatt-soat va suv chiqarish qobiliyati 150 kub metr soat bo'lsa, bunda nasos agregati ushbu paxta maydonini sug'orish uchun mavsum davomida o'rtaacha 37,5 ming kilovatt elektr energiyasi yoki 33,7 million so'm mablag' sarflaydi.

Sug'orish davrida tarmoqda uzilishlar yuzaga kelsa, bunda elektr energiyasi sarf-xarajati bilan bir qatorda ortiqcha, suv resurslari sarflanishi ham kuzatiladi.

Ushbu maydonda ekilgan paxtadan gektaridan o'rtaacha 40 sentner hosil olinadigan bo'lsa, bunda 1 tonna paxta yetishtirish uchun har yili o'rtaacha 210 ming so'mlik elektr energiyasi sarflanган bo'ladi. Endi mana shu paxta maydoniga o'rnatilgan nasos agregati elektr energiyasi iste'molini muqobil energiyaga, ya'ni quyosh paneliga o'tkazsak, natija qanday bo'ladi?

Aytilik, 40 gektar paxta maydonini sug'orish uchun 20 kilovatt quvvatli quyosh paneli o'rnatilgan. Bunda quyosh panellarining o'rtaacha ishchi vaqti 1 kunda 8 soat va 1 yilda 265 kun deb olinadi. Ushbu holatni tahlil qiladigan bo'lsak, o'rnatilgan quyosh paneli yil davomida o'rtaacha 42,4 ming kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda tadbirkorlar tomonidan 1 kilovatt quyosh panelini o'rnatish va tarmoqqa ulash xarajati uchun o'rtaacha 5 million so'm taklif etilmoqda va ushbu qurilmalarga 10 yil kafolat berilib, 5 yil tekin servis xizmati ko'rsatilmoqda.

Fermer xo'jaliklari tomonidan 20 kilovattli quyosh panelini o'rnatish va ishga tushirish uchun 100 million so'm talab etiladi. Buning uchun tijorat banklarining imtiyozli shartlarda kredit resurs mablag'lari jalb etiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 40 gektar paxta maydonini tomchilatib sug'orish texnologiyasi orqali yuqorida keltirilgan parametrlar nasos agregati bilan sug'orish uchun har yili 33,7 million so'm, kelgusi 5 yil uchun esa 168,5 million so'm talab etiladi. Agar ushbu nasos agregatiga quyosh paneli o'rnatilsa, sug'orish uchun elektr energiyasiga xarajat talab etilmaydi, aksincha, fermer xo'jaliklari tomonidan har yili o'rtaacha 5 ming kilovatt elektr energiyasini tarmoqqa sotish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, fermer va dehqon xo'jaliklari hisobidagi nasos agregatlarini muqobil energiyaga o'tkazish orqali nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda elektr energiyasi uchun ortiqcha sarf-xarajati kamaytirish, balki ehtiyojdan ortgan elektr energiyasini tarmoqqa sotish orqali qo'shimcha daromad ham ko'rish mumkin.

farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tumanning Beshtom mahallasida qad rostlagan zamonaviy "Qipchoq hotel" mehmonxonasi shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Mehmonxonada o'tgan yili tadbirkor Davronbek Eshmurodovning o'z mablag'lari va bank tomonidan ajratilgan 2 milliard so'mlik imtiyozli kredit evaziga qurib bitkazildi.

— Xizmat ko'rsatish shoxobchamiz bir vaqtning o'zida 62 mehmonni qabul qila oladi, — deydi Davronbek Eshmurodov. — Mehmonxonamiz barcha zamonaviy qulayliklarga ega. Qolaversa, uning joylashuvi hududning tabiiy go'zalligi va tarixiy obidalarga yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda mahalladagi 10 nafar ishsiz yoshning doimiy bandlegini ta'minlangan. Kelgusida mehmonxonada zamonaviy xizmatlarni yo'lga qo'yish, xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro talablarga mos ravishda yaxshilash ko'zda tutilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tadbirkorlik

IMKONIYATDAN UNUMLI FOYDALANMOQ — BUGUNNING TALABI

Jasurbek Bobojonov bobosi boshlagan temirchilik an'analarini otasi Jumamurod Bobojonovdan puxta o'rgandi. Dastlab temirdan oddiy mehnat qurollari — belkurak, ketmon, aravalar hamda buyurtma asosida har xil buyumlarni tayyorlash bilan shug'ullangan Jasurbek 2013-yilda "Jumamurod usta" oilaviy korxonasini tashkil qildi. Tadbirkor dastlabki yillarda tabiiy gazda ishlovchi an'anaviy qozonlar, temir eshik va darvozalar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratdi. 2018-yilda Mang'it shahridagi kichik sanoat zonasidan yer ajratilishi yangi ustaxona barpo etishga imkon berdi.



Talabga yarasha taklif deganlaridek, korxonada o'z o'rini topgan. Buning yana bir sababi, ushbu qozonxonalar ham tabiiy gazda, ham qattiq yoqilg'ida ishlaydi.

Tadbirkorning 2024-yil Xitoydan olib kelgan jibozlarni temir qismlarni lazer yordamida aniq va sifatli kesishda asqatmoqda. Yig'ish, payvandlash, bo'yoqlash va elektronmontaj ishlari puxta amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarilgan isitish qozonlari hozir Amudaryo tumanidan tashqari Nukus, Qo'ng'iroq, Beruniy, Ellikqal'a, To'rtko'l va Xorazm viloyatining Gurlan kabi tumanlariga ham yetkazib berilmoqda.

Korxonada nafaqat isitish qozonlari, balki mustahkam va sifatli temir darvoza hamda eshiklar ham ishlab chiqarib, xalqimiz ishonchini qozongan. Temir darvoza va eshiklar suv, chang va harorat o'zgarishlariga chidamli bo'lib, yuqori mustahkamligi bilan ajralib turadi. — Har bir buyurtma uchun alohida dizayn va moslashuvchanlik taklif qilamiz. Bu esa mijoz ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish imkonini beradi. Shu bilan birga, temir darvoza va eshiklarni ham boshqa mahsulotlar kabi yuqori sifat me'yorlariga javob beradigan va uzoq muddat davomida samarali xizmat qiladigan qilib tayyorlaymiz, — deydi Jasurbek Bobojonov. — Bugungi kunda korxonamizda 8 nafar doimiy ishchi bor. Mustaqil ishlayotgan shogirdlarim ham bir nechta.

Amudaryo tumani geografik joylashuvi va tarixiy inshootlari bilan turizm sohasida katta imkoniyatlarga ega. Tumanda xizmat ko'rsatish infratuzilmasi rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlayapti, balki aholi

Ta'lim taraqqiyoti



Dilmurod NABIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuksak ma'naviyatli, jismonan barkamol, o'z sohasining yetuk mutaxassislari qilib yetishtirish oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadidir. Bugun sohani sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida qator ishlar bajarilmoqda. Talabalarga berilayotgan ta'lim-tarbiya, pedagoglarga hurmat-e'tibor tobora yuksalib bormoqda. Ustoz-murabbiylarning jamiyatdagi o'rini

mustahkamlash, iste'dodli yoshlarni kashf etish, ularni o'zlarini qiziqqan hamda orzu qilgan kasbda yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash sohaning muhim vazifasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni bosqichma-bosqich belgilangan ko'rsatkichlar yordamida rivojlantirish nazarda tutilgan. Ayni paytda oliy o'quv yurtlarida shu asosida keng ko'lami harakatlar olib borilmoqda.



PROFESSIONAL KADRLAR TAYYORLASH SIFATLI QABULDAN BOSHLANADI

Xususan, keyingi yillarda oliygo'har soni oshdi, abituriyentlar uchun kvotalar sezilarli darajada ko'paydi. Qabul tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish xalqaro reytinglarda o'rinni egallashning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

2024/2025 o'quv yilida mamlakat miqyosida 186 ming 871 abituriyent bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga talabalikka tavsiya etilgan. Shundan 41 ming 153 nafari davlat granti, 145 ming 718 nafari esa to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan. Joriy o'quv yilida Qarshi davlat universitetida 10 ta yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 5 ta magistratura mutaxassisligi ochildi hamda 2676 abituriyent talabaliq baxtiga muayassar bo'ldi. Ayni kunda OTMda umumiy hisobda 67 ta kunduzgi (7 ta qo'shma ta'lim) bakalavriat ta'lim yo'nalishi, 29 ta (4 ta qo'shma ta'lim) magistratura mutaxassisligi bo'yicha talabalar tahsil olmoqda.

Universitetda ilmiy darajali 368 professor-o'qituvchi faoliyat yuritmoqda. Ayni vaqtda ilmiy salohiyat 45 foizni tashkil qilmoqda. Bu 2021-yilga nisbatan 18 foiz o'sish demakdir. Ta'lim-tarbiya samaradorligi oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini sifatli tashkil qilish, malakali kadrlarni tanlash, o'qitishning zamonaviy shakllarini yo'lga qo'yish kabi qator masalalar bilan uzviy bog'liq. Oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasining mustahkam va boy bo'lishi yoshlarning sifatli ta'lim olishiga imkon yaratadi. Bu borada universitetda samarali ishlar qilinadi.

2024-yilda viloyatdagi hududiy muammolarga yechim topish, ilmiy yo'nalishni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni bajarish uchun laboratoriyalar tashkil qilindi. Ularning moddiy-texnik bazasi shakllantirildi. Biologik faol moddalar kimyosi va fizik-kimyoviy tadqiqotlar, Mikrobiotexnologiya, Noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish muammolari, Mikro va nanoelektronika, Tuproqshunoslik, Ichki kasalliklarda qonning biokimyoviy tahlilini tizimli o'rganish, Fiziologik tadqiqotlar ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari hamda Muqobil energiya manbalaridan foydalanish o'quv-ilmiy laboratoriyasi shular jumlasidan.

Oliygo'hdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, hududiy muammolarga ilmiy yechimlar topish va jahon standartlariga muvofiqdoshlik maqsadida joriy yilda OTM hududida xalqaro ilmiy laboratoriyalar markazi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Hamkorlik va natijalar sarhisobi

Bundan tashqari, dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish va ularda o'qituvchilarning stajirovka o'tashi hamda malakasini oshirish borasidagi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yilda universitetning 90 professor-o'qituvchisi xorijda malaka oshirdi, xalqaro stajirovkada bo'ldi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 5 barobar ko'p ekanini e'tirof etish mumkin. Erishilgan natijalar samarasi o'laroq, 2024-yil 6-noyabrda e'lon qilingan nufuzli xalqaro Quacquarelli Symonds (QS) reyting tashkiloti Osiyo universitetlarining 2025-yil uchun reyting natijalariga ko'ra, Qarshi



davlat universiteti 801-850, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 55-o'rinni egalladi.

2022-yildan boshlab universitet xalqaro tan olingan Times Higher Education (THE)

reytingida dunyoning 1000 ta eng kuchli oliy ta'lim muassasalari ro'yxatidan o'rinni egallash maqsadida ishtirok etib kelmoqda. Qilingan ishlar natijasida Qarshi davlat universitetiga Times Higher Education World University Rankings — 2023 xalqaro reytingida "Reporter" maqomi berildi.

Qarshi davlat universiteti xalqaro reytinglarda yangi bosqichga ko'tarilib, (THE) Impact Ranking — 2024 da BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha 6 yo'nalishda ilg'or 1000 talik, 3 yo'nalishda 1500 talik ro'yxatga kiritildi.

Joriy o'quv yilida Qarshi davlat universitetiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ajratilgan barcha kvotalarga abituriyentlar hujjat topshirdi. Nafaqat ajratilgan kvotalar ta'lim, balki abituriyentlar o'rtasida ajratilgan davlat granti va to'lov-kontrakt asosidagi o'rindlar uchun ham tanlov mavjudligi bilimlari abituriyentlarni saralab olish imkonini berdi.

Talabalar o'qish davomida ilmiy va pedagogik salohiyati yuqori bo'lgan professor-o'qituvchilar jamoasidan ta'lim oladi. Olingan bilimlar

nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Xususan, 2023/2024 o'quv yilida universitetning 15 dan ortiq talabasi matematika, kimyo va tibbiyot fanlaridan xalqaro olimpiadada g'olib va sovrindor bo'ldi.

2024/2025 o'quv yili uchun universitetga o'qishga kirish ballari avvalgi yilgi natijalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha 48 ta yo'nalishga ajratilgan 1856 ta kvotaga to'liq talaba qabul qilingan bo'lsa, 17 ta ta'lim yo'nalishiga to'lov-kontrakt asosida o'qishga kirish uchun 100 balldan ortiq ball yiqqan abituriyentlar qabul qilindi.

Ta'lim dasturlari 2030-yilgacha xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Yevropa assotsiatsiyasi (ENQA) a'zozligiga ega "IAAR" mustaqil akkreditatsiya va reyting agentligining tashqi ekspert komissiyasi

Qarshi davlat universitetidagi ta'lim sifatini samaradorligi jahon standartlari hamda mezonlariga muvofiqdoshlikni baholadi. OTMning filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 5 yil muddatga xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi.

Ushbu yo'nalishning xalqaro darajada e'tirof etilishi bejiz emas. Gap shundaki, 2023/2024 o'quv yilida davlat grantida o'qish uchun 178,4 ball, to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun 151,6 ball to'plash talab qilingan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yili uchun bu ko'rsatkich davlat granti uchun 180,4 ball, to'lov-kontrakt asosidagi o'qish uchun 169,9 ballni tashkil qildi. Bu joriy yilda aynan shu ta'lim dasturi bo'yicha mamlakatimizdagi yuqori salohiyatga ega xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashgan boshqa oliy ta'lim muassasalariga kirish ballariga nisbatan yuqori bo'ldi. Mazkur holat misolida o'tish ballari faqat filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) bakalavriat ta'lim dasturi uchun emas, balki boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham yuqori bo'lganini aytilish mumkin. Shuning uchun universitetda tahsil olgan kadrlarga ehtiyoj yuqori. Tahlil natijalari har yili bitiruvchilarimizning 95-96 foizi o'z ish o'rniga ega bo'lyotganini, yurtimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shib kelayotganini ko'rsatmoqda.

2025-yilda yana 6 ta ta'lim dasturini, 2030-yilgacha universitetdagi barcha ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishni rejalashtirganmiz.

Mazkur raqamlar shunchaki ko'rsatkichlar emas, balki Qarshi davlat universitetini xalqimiz e'tirof etayotganining isboti deyish mumkin. Universitetlar reytingini tuzishda ta'lim yo'nalishlariga abituriyentlar tomonidan hujjatlar kelib tushishi yoki talab mavjudligi bilan birga yo'nalishlar bo'yicha o'qishga kirish uchun ballar yuqoriligi inobatga olinishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Nuqtayi nazar

KREATIV, NOVATOR, PSIXOLOG

TARBIYACHI SHU UCH XUSUSIYATNI BIRLASHTIRISHI ZARUR

Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritadigan tarbiyachi yuksak bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lishi, har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash va maktabga tayyorlashga mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Shu bois, yurtimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, tarmoqlarini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalar qamrovini keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish hamda maktabga sifatli tayyorlash borasida keng ko'lami ishlar qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'limning davlat standartini ishlab chiqish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini moddiy resurslar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon bilan ta'minlash normalarini tasdiqlash, muqobil maktabgacha ta'lim shakllarini amalga oshirish tartibini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Eng ahamiyatli, xalqaro ta'lim standartlariga javob beradigan sifatli kadrlar tayyorlash, agar yetishmasa, xorijdan mutaxassislarni jalb etish,



Feruza MADRAHIMOVA,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

chet elga malaka oshirish safarlarini uyushtirish, xodimlar faoliyatini samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Ayni paytda Urganch davlat pedagogika institutida maktabgacha ta'lim bo'yicha ham bakalavr va magistratlar tayyorlanmoqda. Talabalarga asosan, pedagogik va psixologik nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlarni mustahkamlash maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, usullar va vositalardan foydalanish, zarur hollarda individual hamda differensial ta'lim bo'yicha dars o'tilmoqda. O'quv jarayoniga salohiyatli professor-o'qituvchilar jalb etilgan. Yangicha ijtimoiy sharoitdagi ta'lim-tarbiyadan ko'zlanayotgan maqsadlarga erishish, bilimlari, har tomonlama yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash va kasbga yo'naltirish uchun maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga "4K" modeliga asoslangan (kommunikatsiya, kritik fikrlash, kollaboratsiya, kreativ fikrlash) nazariy bilimlar berilmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2- va 3-bosqich talabalar uchun haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida, ya'ni

darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi vazifasi belgilangan. Hozir Urganch davlat pedagogika institutida "4+2" tartibiga mos holatda ishlab chiqilgan malaka talablari, o'quv rejalarini, malakaviy amaliyot dasturlari asosida talabalar amaliyotini sifatli tashkil etish hamda pedagoglikka munosib tayyorlash ishlari tizimli bajarilmoqda.

Joriy o'quv yilidan institut talabalarini Urganch shahridagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "4+2" tartibida amaliyot o'tamoqda. Ushbu o'quv shakli nazariya va amaliyot uyg'un holatda olib borilishi bilan ahamiyatli. Amaliyot jarayonida talabalar bilim va ko'nikmasini har tomonlama ko'rsatish hamda tizim bilan yaqindan tanishish, muhitini his qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Hozir talabalarimiz kasbga yo'naltirish, kerakli pedagogik ko'nikmalar, jumladan, kreativlik, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida "Talabalar muzeyi" va "Talabalar teatr studiyalari" ishlatilmoqda. Shu bilan birga, "Qo'g'irchoq teatri", "Teatr sahnalashtirish ustaxonasi", "Tabiat in'omlaridan dizayn" kabi to'garaklar faoliyat yuritmoqda. Talabalar pedagogik yondashuvini amaliyotda sinab ko'rishi uchun



innovatsion pedagogik loyihalar yaratish va amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Institutning maktabgacha ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilari va talabalarida xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon kabi davlatlarning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bir qancha loyihalar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi. Talabalar o'quv jarayoniga jalb etilgan chet ellik olimlar faoliyati orqali ham yoshlar xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganmoqda. Bu global ta'lim jarayoniga kengroq nuqtayi nazar bilan qarash va yondashish imkoniyatini bermoqda.

Bugungi tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikda mehnat faoliyatida va o'zaro muomalada ijobiy ta'sir ko'rsata olishi, har bir bolani diqqat bilan o'rganishi hamda shaxsiy xislatlari va qobiliyatini bilishi, pedagogik nazokatini

namoyon qilishi, o'g'il-qizlarning xulq-atvori, ish natijasini haqqoniy baholashi, o'z vaqtida yordam ko'rsatishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi lozim. Shularni inobatga olgan holda Urganch davlat pedagogika instituti huzurida Maktabgacha ta'lim ilmiy laboratoriyasini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Bunday laboratoriya ochilishi talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy tajribalarni ham taqdim etadi. Shuningdek, magistr va doktorantlarning ilmiy tajriba-sinov ishlarida ham katta yordam beradi.

Bu, ayniqsa, pedagogik faoliyatning nazariy jihatlarni amalga o'tirish, bolalar bilan ishlashda kerakli pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin. Qolaversa, ta'lim metodikalarini qo'llash, tarbiyaviy faoliyatni boshqarish, bola psixologiyasini yanada chuqur his qilish uchun keng sharoit yaratiladi.

DEZINFORMATSIIYA YOXUD TANLAB O'QISH ZARURATI

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Zamonaviy telefon sovg'a qilganidan beri uyda ota-onam, ayniqsa, otam yangiliklarni kuzatib borishning hadisini olgan. Bilib-bilmay qaysidir telegram guruhlari, Facebook va YouTube kanallarida "sayr qiladi". Tunov kuni ishdan kelsam, ma'yus tortib o'tiribdi. Sababi bilan qiziqdim. — Falonchi olamdan o'tib qolibdi, — dedi otam ancha taniqli xonandaning ismini aytib. Yuragim shuv etdi. Bu san'atkorning qo'shiqlarini oilamiz bilan sevib tinglaymiz.

— Kim aytdi?
— Ana, telefonga shunday xabar keldi.



makonga daxl qilgan holda taqdim qilishga urinishlar boshlandi.

Kelib chiqish ildizi xorijda bo'lgan manbalar mamlakatimiz obro'si, nufuziga putur yetkazishga, odamlar tafakkurini izdan chiqarishga qaratilgan axborot xurujini avj oltirish bilan ovara. Bugun urushning ana shu shakli eng katta tahdidlardan biriga aylangan. Globallashuv butun dunyoga shiddat bilan hukmini o'tkazishda davom etayotgan bir paytda fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni buzg'unchi g'oyalari ta'siridan asrab-avaylash kun tartibiga chiqdi. Bunday sharoitda tarbiya borasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar ruhi o'z so'zini aytishi, axborot maydonida milliy kontent yaratish vazifasi muhimligi yetakchi pozitsiyaga chiqishi lozim.

2024-yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz ham bu masalani alohida urg'ulagan jumalistlarni mamlakat axborot makonida milliy kontent yaratishga chaqirib, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berish, xalqimizni turli axborot xurujlaridan saqlash muhimligini ta'kidlagan edi.

— Kontent, avvalo, undan foydalanuvchi auditoriya uchun ishlab chiqilishi zarurligini tushunish va anglash lozim, — dedi filologiya fanlari doktori Beruniy Alimov. — Mediamahsulotdan foydalanuvchilarning ehtiyojini bilish va e'tiborga olish juda

muhim. Foydalanuvchi milliy resurslardan qanoatlanmas, milliy kontentdan o'ziga qiziq va kerakli axborotni topa olmas ekan, xorijiy resurslardan qidirishi tabiiy holat. O'z o'rnida milliy foydalanuvchilarni, ayniqsa, yoshlar chet el resurslaridagi salbiy ruhi ma'lumotlarni olgandan so'ng ushbu axborot ularning dunyoqarashiga ta'sir o'tkaza boshlaydi. Natijada yoshlarning tarbiyasi buzilishi, otanasining orzu-umidlari puchga chiqishi hech gap emas. Bunday vaziyatlarimizni oldini olish esa barchamizning vazifamiz.

Xo'sh, mediamakonda milliy kontent yaratish, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho berish nechog'liq uddalanishi mumkin bo'lgan vazifa? Bugungi dunyo ahli kundan kunga kengayib borayotgan olamshumul o'zgarishlar davrida yashayotir. Mutaxassislar fikricha, bu o'tgan asrdagi ilmiy-texnik yuksalish natijasi. Iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda erishilgan va globallashuv nomi ostida tanilgan yutuqlar aynan shu ilmiy-texnik yuksalish bilan bog'liq. Biroq hayotda hamma narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Globallashuv ham bundan mustasno emas.

Millatimiz qadriyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, tarixi o'z-o'zidan va bir kunda paydo bo'lib qolgan emas. Ushbu bebaho boylikka erishish, uni asrab-avaylab avloddan avlodga yetkazish uchun xalqimiz juda katta ishlarni qilgan, kerak bo'lsa, ota-bobalarimiz bu yo'lda qurbonlik bergan. Shunday ekan, ushbu merosni biz ham saqlashimiz, yanada boyitib, saqqalab, bekam-u ko'st egasiga, ya'ni keyingi avlodga yetkazishimiz zarur. Ayni mana shunday qat'is sharoitda milliy kontentni shakllantirish, doim rivojlantirib, mustahkamlab berish masalasi dolzarb.

Bugun ilg'or texnologiyalar 10-15 yil avval xayolimizga ham kelmagan tushuncha va hodisalarni hayotimizga olib kirdi. Axborot sohasiga doir dezinformatsiya, fakthecking, keys, feyk kabi o'nlab iboralar lug'atimizga

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



mustahkam o'mashdi. Axborot shu darajada ko'pki, sarasini sarakka, puchagini puchakka ajratib olish tobora murakkablashib bormoqda. Shunday paytda ziyoli qatlam bong urayotganidek, milliy kontentimizga e'tiborsiz bo'lsak, milliy axborot makonimizga xorijiy OAV va axborot manbalari kirib kelishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lamiz.

Milliy axborot makonimiz chetdan kirib kelgan axborot bilan to'lib-toshar ekan, bu holat milliy kontent rivoji to'xtab qolishiga olib keladi. Natijada uni boy berib qo'yishimiz ham mumkin. Milliy kontentimiz bora-bora milliy o'zligimiz ham bo'lmaydi. Ayniqsa, jamoat transportidan ko'p foydalanadiganlar kuzatgan chiqar: deyarli 99 foiz yo'lovchining nigohi qo'lidagi zamonaviy gadjetga qadalgan. Xayolu shu bilan qo'lidagi matohga singib ketganidan o'ziga kerakli bektadan o'tib ketganlar qancha.

Ular nima ko'ryapti, nima o'qiyapti? Bo'lar-bo'lmas axborotni, videolavhalarni kimlar bilan va nima maqsadda bo'lishyapti? Betayin, noxolis axborot va xabarlar manbasini bilish qiziqyaptimi? Nima uchun mavjud kontentlar orasida milliylikni tarannum etuvchilarni barmoq bilan sanarli? Nega aksariyat mediamahsulotning sifati, dolzarbligi, mazmun-mohiyati va xolisligi abgog? Afsuski, bu kabi savollarga javobimiz yo'q, bo'lsa ham ular bizni xotirjam qiladigan darajada emas.

Yana savol izidan savol tug'ilaveradi. Nahotki o'zgina izlanib, sifatli, dolzarb va jozibador kontent yaratish shunchalik qiyin bo'lsa? Yo'q, bu murakkab emas. Bu ishni bajarish uchun, tan olaylik, bizda barcha sharoit va imkoniyat bor...

Har bir xabarini tarqatishda uning faqat bir tomonini emas, ertaga olib kelish ehtimoli bo'lgan oqibatini ham yaxshilab o'yab ko'rish lozim. Nega ki insonlar orasida tagi puch,

uydirma gaplar tarqalishiga, nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Noto'g'ri axborot tarqatish (dezinformatsiya) dinimiz hukmi bo'yicha ham og'ir gunoh, buning uchun javobgarlik qonun belgilab qo'yilgan. Zero, u voqea-hodisalar rivojiga, inson taqdiriga ta'sir etishi mumkin. Bugun mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar nafaqat yurtdoshlarimizni, balki uzoq-yaqindagi barcha do'stu yorlarimizni hayratga solmoqda. Bu hayrat ichida islohotlarga xayrixohlik, qo'llab-quvvatlash, har doim birga bo'lish kabi ezu niyatlar mujassamligi shundoq bilinib turibdi.

So'nggi yillarda yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, ichki va tashqi siyosatimiz barqarorligi yo'lida boshlangan sa'y-harakatlar Markaziy Osiyo geosiyosiy holatini ham o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, qo'shilar bilan iqtisodiy, tijoriy, ilmiy-ma'rifiy sohalariga qaratilgan teng va ochiq hamkorlik yo'lga qo'yilgani ko'ngildagi armonlarni aritdi.

Afsuski, bu o'zgarishlarni ko'rolmaydigan, hasadli nigoh bilan boqib turgan kuchlar ham yo'q emas. Noxolis xabarlarini e'lon qilayotgan xorijdagi "do'stlarimiz"ni chorasiz qoldirishning yo'laridan biri ularning "zahmatli mehnati"ni o'zimizning "uz" domeni qolish orqali yo'qqa chiqarishdir. Agar barcha OAV amaldagi qonunchilik va davlatimiz rahbarining kuyinchilik bilan qo'yayotgan talablardan kelib chiqib faoliyat yuritisa, hech qachon tashqi xabarlar insoniy axborot makonimizga tahdid sola olmaydi.

Xalqimizning boy madaniy merosi bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bunday madaniyat, ma'rifat hamda tarixga ega bo'lgan millatga hech qaysi zararli "ommaviy madaniyat" putur yetkazolmasligi kerak.



Doim shu. Kunda-kunora telefonga kelgan xabarlar yurak bezillab qolgan: yo kimdir vafot etgan, yo qamalgan bo'ladi. Yana kimdir falokatga uchrangani, komaga tushib qolgani kabi uydirmalar tarqatiladi. Dahshatli, uni oddiy, sodda iste'molchi haqiqat deb qabul qiladi. Yotig'i bilan navbatdagi "tushuntirish ishlari"ni olib bordim:

— Bunday axborotni tarqatib, "suyunchi" oladiganlar hozir ko'payib ketgan. Sizga taqdim etilayotgan xabarlar 90 foiziga ham ishonmang. Falonchi tirik, hali ko'p yashaydi.

Farosatsiz-u savodsizlar siz-u bizni aldayveradi. Noto'g'ri bilan xolis va haqqoniy axborotni ajratib olishni, ishonchsiz manbalarni e'tiborsiz qoldirishni bilib olishimiz kerak.

Shu mazmunda gapirdim-u, o'ylanib qoldim. Xavotirga soladigan yaqin-yaqingacha asosan maishiy ma'lumotlar sizdirilar va ular falonchi mashhur san'atkor olamdan o'tdi, sudlandi, qamaldi, avtohalokatga uchradi kabi uydirmalar shaklida bo'lar edi. Endi esa yomon niyat egalarning "ishtahasi ochilib ketdi" shekilli, mavzularni ijtimoiy, iqtisodiy va hatto siyosiy

Mulohaza

Saodat asrida ham jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashilgan. Jaholat bilimsizlik ortidan keladigan illat bo'lsa, ma'rifat bilish, anglash tufayli insonni komillikka yetaklaydigan fazilatdir. Islom tarixidan ma'lumki, saodat asridan oldingi davr jaholat davri edi. O'sha paytda mutaassiblik va jaholat juda kuchli bo'lgan. Odamlar qiz farzand tug'lsa, tiriklayin ko'mar, o'g'il farzandlar tug'ilishini esa xursandchilik bilan kutib oladi.

Bu johillik, ilmsizlik ayolga munosabatda, kishilik jamiyatida oddiy mavjudlik muvozanatini asrab qolishning muhim shartini anglamaslikda ko'rinadi. Vaholanki, o'sha davrda qiz farzandlar bo'lmasa, insoniyat nasl-nasabini davom ettirish imkonsiz ekanini to'g'risidagi oddiy haqiqatni tushunmaslik, anglamaslik jaholatning eng yuqori cho'qqisi sifatida namoyon bo'lgan edi.

Qadim Turon o'lkasida ham ilm-ma'rifat davlat darajasida qo'llab-quvvatlangan davrlarda dunyoga mashhur qomusiy olimlar, allomalari yetishib chiqdi, IX-XI, XIV-XV asrlardagi Sharq Uyg'onish davrida Movarounnahr ilmfan beshigiga aylandi, bu o'lkada buyuk ilmiy kashfiyotlar qilindi.

Ammo ulug' astronom olim Mirzo Ulug'bekning o'ldirilishi, Ali Qushchi singari buyuk allomalarning yurtimizni tark etishi, Ulug'bek qurdirgan ulkan observatoriyaning vayron qilinishi o'sha davrda johillik,

ZAMONAMIZ ZIYOLILARI NEGA ZAMONAVIY EMAS?



Yusuf ABSOATOV,
kimyo fanlari bo'yicha
falsafa doktori

mutaassiblik degan zulmat yaqinlashib qolganidan dastlabki alomat sifatida jamiyatni larzaga keltirdi. Ammo zilzilamonand bu silkinishni, zarbani jamiyat darrov sezmedi, ilg'amadi, his qilmadi. Keyin esa yurtimizda mutaassiblik, bid'at taraqqiyot kushandasiga aylandi.

Har qanday dunyoviy ilm, aniq fanlar va

zamonaviy ishlab chiqarishga istak, xitiroga "kufir" tamg'asi bosildi. Natijada amir, amaldorlar maishatga mukkasidan ketdi. Keyingi davrda ham jaholat din niqobida taraqqiyotni to'xtatdi, nafaqat to'xtatdi, balki orqaga og'dirib ketdi. Aynan shu davr avvalida Mashrabga o'xshash haq so'zidan tonmaydigan qahramonlar maydonga chiqdi, ammo ular ham jaholat doriga osildi.

Albatta, bugun insoniyat tamadduni ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ancha yuksak marra larni zabt etdi. Shunga muvofiq johillik, mutaassiblik, ilmsizlik darajasi, shakl-u shamoyili ham o'zgaradi.

Ammo qanday shakl va darajada bo'lmasin, bugun ham jaholat — ilmsizlik ortidan kelayotgan illatlar talaygina. Buni jamiyat hayotining barcha jabhasiga ta'sirini o'tkazayotgan ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy, ijtimoiy, axloqiy masalalarga bildirilayotgan fikr va munosabatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Aksariyat odamlar tushunib-tushunmay, vaziyatni aniq bilmay yoki bilishga harakat qilmay turib, kimgadir tuham, ig'vo qilish, kimmidir haqoratlab, zabun qilishdan ham toymayapti.

Ijtimoiy tarmoqlardagi bugunning yana bir fojiasi, jaholati shundaki, xalqimiz kuzatib borayotgan va jamiyatimizning umumiy qiyofasi, xarakteri, saviyasi hamda tabiatini,

kayfiyatini ko'rsatib berayotgan turli mavzuli bahslar, muhokamalarda xalqimiz elitasi, ziyoli qatlami, chin ma'rifatparvarlari barmoq bilan sanarli yoki ularning aksariyati shunchaki kuzatuvchi maqomida.

Savol tug'iladi: ziyolilar zamonga moslashishi, uning talablariga hozirjavob bo'lishi kerak-ku? Ammo qani ular? Nimaga biqinib, shunchaki kuzatib o'tiribdi? Chunki bu tarmoqlar katta izdihomga, istagan odam istaganicha tuturuqsiz gapira oladigan va buning uchun javob bermaydigan minbarga, olomon so'kinadigan, baqir-chaqir qiladigan maydonga aylangan.

Bu ilmsiz, saviyasiz olomon har qanday odamning kuchli mantiqqa asoslangan va to'g'ri fikrlarini ham yo'qqa chiqarib, bebro' qilish imkoniga ega.

Xo'sh, shunday ekan deb chekinishimiz kerakmi? Albatta, yo'q!

Zamonaviy minbar, maydon shu yerda ekan, demak, jamiyatning elitasi ham, ziyoli, ma'rifatparvarlari, eng kuchli siyosatchilar, tarixchilar, deputatlar, tahlilchilar, adabiyotshunoslar, tanqidchilar, marhamat, shu yerda chiqish qilsin, o'z so'zini aytin, munosabatini bildirsin.

Birlashib, ayrim shaxslarning noto'g'ri va noxolis fikrini to'g'ri o'zanga burish, o'zgartira olish mumkin. Shundagina millat, xalq, jamiyat o'zgaradi, ongi, tafakkuri o'sadi. Yo'qsa,



internetning bunday ulkan imkoniyatidan faqat g'iybatxona sifatida foydalanamiz qoladi, xolos...

Albatta, ma'rifat ahli, ziyo ahli bu jarayonda faol bo'lishi, yolg'on, tuham yoki ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltiradigan ig'vog'arlik tusiga ega axborotga nisbatan o'z nuqtayi nazarini bildirishi lozim.

Chunki bugun ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlarning deyarli 50 foizdan ko'prog'i asossiz va ishonchsizdir. Demak, bugunning jaholatiga qarshi ma'rifat bilan kurashish istagida ekanmiz, albatta, har bir ma'lumotning haqqoniyligini tez aniqlash va ishonchlilik darajasini tekshirish malakasiga — faktheckingga ega bo'lishimiz lozim.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda fikrimizni bildirganda ham, albatta, uni asoslab, dalillar gapirish madaniyatini shakllantirish juda muhim. Shunchaki gapirish, kimmidir yomonotliqqa

chiqarish, kamstish, mazax qilish odatga, urfga aylanib qolmasligi kerak. Zotan, aynan shu odat bugunning jaholatidir.

Agar har birimiz so'zning, fikrning yukini his etsak, o'z shaxsimizni, o'zligimizni hurmat qilsak, bugunning jaholatini ma'rifat bilan, insoniy munosabat bilan, albatta, yengib o'ta olamiz.

Qisqasi, biz nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki har bir xatti-harakatimizda nozik did, keng tafakkur va dunyoqarashimizni, madaniyat va ma'naviyatimizni ko'rsata olishimiz lozim. Yurtga sadoqat bilan xizmat qilishga bel bog'lagan ekanmiz, vijdon, insof va halollik, vatanparvarlik shiorimiz bo'lsin. Chunki yangilanayotgan O'zbekistonning yangi avlodini shakllantirishning eng maqbul paradigmasi — konsepsiyasi ham sadoqat va vatanparvarlikdir.

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.

35033 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo'minova
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy